



INTERPRETATION OF THE IDEAS OF KINDNESS IN THE STORY 'TO WHOM SHOULD I GIVE MY LITTLE HEART?'

Mirzayeva Shahlo

4th-year student of the Classical Persian group

School of Turkic Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: mirzayevashahlo2203@gmail.com

O. Turdiyeva

Doctor of Philological Sciences

Associate Professor at the School of Iranian and Afghan Studies

TSUOS

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Nodir Ibrohim, story, homeland, tolerance, love, innocent childhood.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article analyzes Nodir Ibrohim's story "To Whom Should I Give My Little Heart?" The work depicts the human heart as a symbol of kindness, love, and tolerance, and through the inner experiences of the main character — a child — the highest human values are highlighted. The article also analyzes the emotional narrative techniques used to demonstrate the infinite nature of the human heart and its openness to goodness. This article will help in understanding the story and grasping its meaning and essence.

KICHKINA YURAGIMNI KIMGA BERISHIM KERAK?" HIKOYASIDA EZGULIK G'YOYALARI TALQINI

Shahlo Mirzayeva

4-kurs mumtoz fors guruhi talabasi

"Turkshunoslik" oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: mirzayevashahlo2203@gmail.com

O. Turdiyeva

filologiya fanlari doktori

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Nodir Ibrohimiy, hikoya, vatan, bag'rikenglik, sevgi, beg'ubor bolalik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Nodir Ibrohimiyning "Kichkina yuragimni kimga berishim kerak?" hikoyasi tahlil qilinadi. Asarda inson qalbi mehr-oqibat, sevgi va bag'rikenglik ramzi sifatida tasvirlanib, bosh qahramon – bolaning ichki kechinmalari orqali insoniylikning eng oliy qadriyatlari yoritiladi. Shuningdek, asarning inson qalbining cheksizligi va yaxshilikka ochiqligini ko'rsatishga qaratilgan ta'sirchan tasvir vositalari tahlil qilinadi. Ushbu maqola hikoyani tushunish va uning mazmun-mohiyatini anglashga yordam beradi.

ТОЛКОВАНИЕ ИДЕЙ ДОБРОТЫ В РАССКАЗЕ «КОМУ Я ДОЛЖЕН ОТДАТЬ СВОЁ МАЛЕНЬКОЕ СЕРДЦЕ?»

Мирзаева Шахло

Студентка 4 курса группы классического персидского языка

Высшая школа тюркологии

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: mirzayevashahlo2203@gmail.com

O. Турдиева

доктор филологических наук

доцент Высшей школы иранистики и афганистики

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Иран, рассказ, Амузода Халили, детская литература, белуджи.

Аннотация: В данной статье анализируется рассказ «Два неспелых финика» современного иранского детского писателя Фаридуна Амузоды Халили. Произведение посвящено трудной жизни кочевых народов, проживающих в Иране. Через этот рассказ автор стремится осветить болезненные проблемы времени и привлечь к ним внимание общественности.

Nodir Ibrohimiy (1930–2008) Eron adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lib, inson qalbining nozik jihatlarini tasvirlashda o'ziga xos uslubga ega yozuvchi hisoblanadi. Adib yozuvchilik bilan birga, qator she'riy to'plamlar muallifi hisoblanadi hamda va ssenariynavislik faoliyati bilan ham shug'ullangan. U asosan insoniy fazilatlar, sevgi, vatanparvarlik va axloqiy qadriyatlar haqida yozgan. Uning eng mashhur asarlari "Bir muhabbat qissasi", "Kichkina yuragimni kimga berishim kerak?" va "Mening onam farishta edi" kabi kitoblardir.

Sodda va samimiy uslubda asarlar yozgan Ibrohimiy Eron bolalar adabiyotida katta iz qoldirgan. Uning - قلب کوچکم را بे چه کسی بدھم؟ "Kichkina yuragimni kimga berishim kerak?" hikoyasi insoniylik, mehr-oqibat va sevgi-muhabbat kabi ezgu tuyg'ularni ramziy tarzda olib beradi. Hikoya bosh qahramoni ismi va yoshi ham ko'rsatilmagan bolakayning beg'ubor qalbi orqali jamiyat, insoniy munosabatlar va ma'naviy qadriyatlar haqida chuqur fikr yuritishga undaydi.

Ushbu maqola orqali hikoyaning syujeti, mavzusi, asosiy g'oyasi va badiiy xususiyatlarini tahlil qilib, muallifning falsafiy nuqtayi nazari olib berishga harakat qilamiz.

Ta'kidlanganidek, hikoyada bosh qahramon – kichik yoshli bola bo'lib, u o'z yuragini kimga bag'ishlashi haqida o'ylaydi. Buvisi unga inson qalbi bo'sh bo'lishi mumkin emasligini, aks holda u bo'sh ko'zadek xunuk bo'lib qolishi va bunday bo'sh yurak odamni ko'p bezovta qilishini aytadi:

ما در بزرگم می گوید : قلب آم نباید خالی بماند. اگر خالی بماند، مثل يك گلدان خالی زشت است و آدم را اذیت می کند

Mening buvim aytadi: yurakni bo'sh qoldirmaslik kerak. Agar bo'sh qoldiradigan bo'lsa, xunuk bo'sh idish singari bo'lib qoladi.

Shu sababli bolakay yuragini kimga berishini tanlashga harakat qiladi. U avval onasiga, keyin otasiga, so'ng esa oila a'zolariga, do'stlariga va yaxshi insonlarga bag'ishlaydi:

فوراً تصميم گرفتم آن گوشه ى خالي قلبم را بدهم به چند نفر؛ چند نفر که خيلي دوستشان داشتم؛ و اين کار را هم کردم. برادر بزرگم، خواهر کوچکم، پدر بزرگم، مادر بزرگم، يك دايي مهربان و يك عمومي خوش اخلاقم را هم توی قلبم جا دادم

Shu zahotiqoq men yuragimning bo'sh burchagidan bir qancha juda yaxshi ko'radigan odamlarimga berishga qaror qildim. Va men shunday qildim ham. Men – akam, singlim, bobom, buvim, mehribon bir tog'am, odobli bir amakimga yuragimdan joy berdim.

Biroq, bola bir narsani tushunadi: u qancha ko'p odamga yuragidan joy bersa ham, uning yuragida hali ham joy bor ekan. Shunda u yuragini vatan himoyachilariga, xalqiga va hatto butun dunyodagi yaxshi insonlarga bag'ishlaydi. Hikoya oxirida u yomon odamlar ham yaxshilikka intilsa, ularga ham joy ajratishga tayyor ekanini aytadi:

حالا فقط يك جاي خيلي خيلي کوچک در يك گوشه ى قلبم باقی مانده. میدانيد آن جا را برای چه کسانی باقی گذاشت؟ بله، درست است برای همه ی آدم های بد، به شرطی که خودشان را درست کنند و دست از بد بودن و بدی کردن بردارند؛ بچه ها را اذیت نکنند دریاها را کثیف نکنند جانورها را نکشنند و به کسی زور نگویند... آدم های بد هم اگر خوب بشوند خوب حق دارند يك خانه ى کوچک توی قلب من داشته باشند... نه؟

"Endi faqat yuragimning burchagida juda kichik bir joy qoldi. Bilasizmi, men bu joyni kimlar uchun qoldirdim? Ha, to'g'ri, yomon odamlar uchun, lekin ular o'zlarini to'g'irlashsa va yomonlikdan, yomon ish qilishdan voz kechishsa; bolalarni qiynamasalar, dengizlarni ifloslamasalar, hayvonlarni o'ldirmasalar va hech kimga kuch ishlatmasalar... Yomon odamlar ham yaxshi bo'lsa, yaxshi, ular yuragimda kichik bir uyga ega bo'lishga haqli... Shunday emasmi?"

Hikoyaning asosiy mavzusi sevgi va mehr-muhabbat, ezgulik bo‘lib, bola yuragini eng yaqinlariga, ya’ni ota-onasi, opa-ukasi, bobosi, buvisi va do‘srlariga beradi. Bu orqali yozuvchi inson yuragi sevgi bilan to‘lishi kerakligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, bola yuragini yurt himoyachilariga bag‘ishlash bilan o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbatini ifodalaydi. Asarda insoniylik va yaxshilikka chorlov ohangi mavjud bo‘lib, hikoya qahramoni faqat yaxshi insonlarni yuragiga joylash bilan cheklanmay, yomon odamlar ham o‘zlarini tuzatsa, ularga ham joy ajratishini bildiradi. Hikoyada cheksiz sevgi va bag‘rikenglik tuyg‘ulariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Yurakning doimo bo‘sh joyi borligi orqali muallif inson sevgisi va bag‘rikengligi chegarasiz ekanini ifodalaydi.

Muallif bolakayning fikrlari orqali shuni anglatmoqchiki, yurak – bu faqatgina go‘sht va qon bilan to‘ldirilgan tana a’zosi, biologik organ emas, balki unda insoniy mehr-oqibati, sevgisi va sadoqati joy oladigan, inson qalbi va ma’naviyatining timsoli hamdir. Haqiqiy inson yuragini faqat ezgulikka ochishi kerak.

Hikoyada badiiy tasvir vositalariga ham joy ajratilgan:

عجیب است واقعاً معلوم نیست این قلب است یا دریا قلب به این کوچکی آخر چطور هیچ وقت پر نمی شود؟ ها؟

“Ajoyib, bu yurakmi yoki dengizmi? Bunday kichkina yurakcha nega hech ham to‘lmaydi a?”

Bu misol orqali kichkina qalb dengizga qiyoslanmoqda.

Bolakayning o‘z yuragi ustidan o‘ylanishi hikoyaga ichki kechinma va falsafiy ruh bag‘ishlaydi:

برای همین هم مدتی ست دارم فکر میکنم این قلب کوچولو را به چه کسی باید بدهم؛ یعنی، چه کسی را باید توی قلبم جا بدهم که از همه بهتر باشد؛ یعنی راستش، چطور بگویم؟ دلم میخواهد تمام این قلب کوچولوی کوچولو را مثل یک خانه‌ی فشنگ کوچولو به کسی بدهم که خیلی خیلی دوستش دارم. نمی‌دانم... کسی که خیلی خوب است؛ کسی که واقعاً حقش است توی قلب خیلی کوچولو و خیلی تمیز من خانه داشته باشد

“Shuning uchun men bir muddatdir bu kichik yurakni kimga berishim kerakligini o‘ylab yuribman; ya’ni, kimni yuragimga joylashtirishim kerak, u hammadan yaxshiroq bo’lsin; ya’ni, rostini aytsam, qanday aytishimni bilmayman? Butun bu kichkina yurakni, go’zal kichkina uy kabi, judasevGANIM bir kishiga berishni xohlayman. Bilmayman... juda yaxshi bo’lgan kishi; haqiqatan ham, u juda yaxshi bo‘lib, juda kichkina va toza yuragimdagи uyda bo‘lishga haqqi bor kishi bo‘lishi kerak.”

Yurak kichik bir makon bo‘lsa-da, hikoyada shahar, hattoki dengiz kabi tasvirlanadi, bu esa uning cheksiz imkoniyatga ega ekanligini anglatadi.

Hikoyaning asosiy g‘oyasi inson qalbining cheksiz sevgiga ega bo‘lishi mumkinligi haqida falsafiy g‘oyalarga asoslanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Nodir Ibrohimiyning “Kichkina yuragimni kimga berishim kerak?” hikoyasi sevgi, insoniylik va bag‘rikenglik haqida o‘quvchini o‘yashga undaydigan pozitiv hikoya. Bolakay yuragini yaqinlari, do‘srlari va yaxshi odamlar bilan to‘ldirgan sari, uning

yuragi yanada kengayadi. Bu orqali yozuvchi inson qalbi cheksiz mehr-muhabbat va sevgiga to‘la ekanini ko‘rsatadi. Asar aynan bolalar auditoriyasiga bag‘ishlangan bo‘lishiga qaramay, har qanday yoshdagi o‘quvchi uchun qiziqarli bo‘lib, u yurak faqat o‘ziga yaqin bo‘lganlar uchun emas, balki butun insoniyat, tabiat va hayvonlar uchun ham ochiq bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu hikoya inson qalbining cheksiz qudratini anglashga yordam beradi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. داستان های کوتاه امروز. برای کوکان. به کوشش میترا ابیات. انتشارات بینالمللی الهدی ۱۳۷۳. ۱۹۹۴.
2. Qosimov O. Zamonaviy fors adabiyoti tarixi. “Yozuvchi” nashriyoti, Toshkent 2010.
4. Rustamov B. Adabiy tahlil asoslari va hikoya janri. Fan. Toshkent 2012.